

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 313 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA


O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Iloxmonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurt qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurboyev Farrux Alisher o'g'li , Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv moliyaning ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INKLYUZIV MOLIYANING AHAMIYATI

Latipova Shaxnoza Maxmudovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Moliya” kafedrasi dotsenti

latipova_shaxnoz@mail.ru

ORCID ID 0000-0002-8459-3178

99890271-91-11

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv moliya, uning bugungi kundagi holati va olimlarning ushbu tushuncha bo'yicha fikrlari tadqiq qilingan. Moliya tizimida moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv moliyaning ahamiyati yoritilgan. xalqaro va mahalliy darajada inklyuziv moliyaning holati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv moliyani rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv moliya, moliyaviy xizmat va mahsulotlar, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy resurslar, moliyaviy reguliator, moliyaviy xizmat iste'molchisi.

Abstract: This article examines inclusive finance, its current state and the views of scholars on this concept. The importance of inclusive finance in providing financial resources in the financial system and increasing the financial literacy of the population is highlighted. The state of inclusive finance at the international and local levels is analyzed. Also, proposals are made for the development of inclusive finance in Uzbekistan.

Key words: inclusive finance, financial services and products, financial literacy, financial resources, financial regulator, financial service consumer.

Аннотация: данной статье рассматриваются инклюзивные финансы, их современное состояние и взгляды ученых на эту концепцию. Подчеркивается важность инклюзивных финансов в обеспечении финансовых ресурсов в финансовой системе и повышении финансовой грамотности населения. Анализируется состояние инклюзивных финансов на международном и местном уровнях. Также вносятся предложения по развитию инклюзивных финансов в Узбекистане.

Ключевые слова: инклюзивные финансы, финансовые услуги и продукты, финансовая грамотность, финансовые ресурсы, финансовый регулятор, потребитель финансовых услуг.

KIRISH

Jahonda kuzatilayotgan turli xil iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar moliya bozori ishtirokchisi bo'lgan fintex kompaniyalarining taraqqiy etishi uchun turtki bo'lmoqda. Ushbu kompaniyalar transaksion harajatlarning



bozorning boshqa ishtirokchilariga nisbatan past bo'lishi ularning asta-sekin banklar hamda boshqa moliyaviy vositachilar bilan raqobatlashishiga, buning natijasida esa moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishiga olib keldi. Moliyaviy innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar hamda fintex-startaplarning shakllanib borishi moliya tizimida yangi xizmatlarning paydo bo'lishiga, an'anaviylarining esa yanada tezlashib, qulay, samarali, kam harajatli va eng asosiysi barcha uchun ommalashishiga zamin yaratmoqda. Fintex kompaniyalar nafaqat yangi biznes-modellarni yaratadi, balki yana bir muhim funksiya – aholi va yuridik shaxslarning moliyaviy xizmatlardan foydalanishini yanada kengaytirish funksiyasini bajarib, "inklyuziv moliya" tushunchasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Inklyuziv moliya tushunchasi soha (tarmoq)larning nafaqat YAIMning rivojlanishi darajasiga ta'sir ko'rsatishi, balki bu soha (tarmoq)larning barchasini rivojlantirish konsepsiyasiga tayanib, bu orqali barqaror rivojlanishini ta'minlashi kerak. Mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun nafaqat iqtisodiy, balki inklyuziv o'sishni ta'minlashning global ahamiyat kasb etib kelayotganligi ushbu tushunchaning dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda inklyuziv moliya tushunchasi siyosatchilar, tadqiqotchilar, banklar va boshqa manfaatdor sub'ektlar tomonidan inklyuziv maqsadlar hamda barqaror o'sishga erishish maqsadida keng qo'llanib kelinmoqda.

Sir emaski, har bir mamlakatda moliya tizimi hayotiy muhim ahamiyat kasb etib, jamg'arish, to'lovlarni amalga oshirish va risklarni boshqarish bo'yicha aholining ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Inklyuziv moliya aholining barcha qatlami uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish mumkinligi va oddiy, soddaligini ta'minlagan holda iqtisodiyot uchun turli afzalliklarga ega. Inklyuziv moliya orqali resurslarning samarali taqsimlanib, bir paytning o'zida kreditlashning norasmiy manbalarini qisqarishiga erishish mumkin bo'ladi [1].

"Inklyuziv moliya" tushunchasi ilk bora rasman inklyuziv moliya bo'yicha global hamkorlikka oid konferensiyada tegishli xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan qo'llanilgan. Ularning fikricha, inklyuziv moliya deganda, mehnatga layoqatli yoshdagi insonlarning rasmiy moliyaviy xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlardan kredit, jamg'arma, to'lovlar va sug'urtadan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari tushuniladi [2].

Ma'lum bir vaqt o'tib, inklyuziv moliya moliya bozori ishtirokchilari tomonidan ma'lum bir o'zgarishlarga uchradi. Xususan, Hindiston Banki rahbari tomonidan inklyuziv moliyaga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (xususan, past daromadli aholi) ehtiyojlariga mos ravishda arzon narxlarda va shaffof tarzda moliyaviy xizmatlarni taqdim etish jarayoni sifatida ta'rif berishgan [3].

Xalqaro auditorlik kompaniyalaridan biri Ernst and Young esa inklyuziv moliyani faoliyati davomida oldin bunday mahsulotlardan foydalanish imkoni mavjud bo'lmagan jismoniy shaxslar va korxonalarga mavjud, qulay va mos bo'lgan moliyaviy mahsulotlarni taqdim etish deb ta'kidlagan.

Xalqaro moliyaviy taraqqiyot bo'yicha hisobotda inklyuziv moliyaga moliyaviy xizmatlardan foydalanadigan jismoniy shaxslar va firmalar ulushi sifatida yondashilib, u to'lovlar va jamg'arma hisobvaraqlaridan tortib kredit, sug'urta, pensiya va qimmatli qog'ozlar bozorlarigacha bo'lgan turli xil moliyaviy xizmatlarni aks ettiruvchi ko'plab o'lchamlarga ega ekanligi ta'kidlangan [4].

Inklyuziv moliya tushunchasi mamlakatimiz moliya tizimi uchun nisbatan yangi munosabatlarni anglatsada, ushbu tushuncha doirasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Sh.El'murodov tomonidan inklyuziv moliyaning ahamiyatipul-kredit siyosatining samaradorligini oshirishi orqali yoritilib, muallifning fikricha: "Moliyaviy inklyuzivlik iqtisodiyotning yirik sektorining rasmiy moliya tizimida ishtirok etishini ta'minlaganligi sababli, u iqtisodiyotda ijobiy tashqi ta'sirni yaratadi, chunki u pul-kredit siyosatini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Aslida, yuqori moliyaviy inklyuziya foiz stavkalarining samarali siyosat vositasiga imtiyozlarini joriy etish amaliyoti qo'llanildi, bundan maqsad bu faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning faoliyatlarini rasmiy iqtisodiyotda olib borishlariga erishish hisoblanadi" [5].

K.Ikromov inklyuziv moliyaga bugungi kunda jahon iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yondashilib, uning tarixini bir necha asosiy bosqichlarga bo'lib tadqiq qilgan. Asosiy bosqichlar sifatida inklyuziv moliyaning institutsional asoslarning shakllanishi bosqichini, global tashabbuslar va siyosiy yondoshuvlar bosqichini, texnologik inqilob va raqamlashtirish bosqichi, inklyuziv moliyaviy ekotizimlarni rivojlantirish hamda innovatsion moliyaviy modellar va raqamli iqtisodiyot bosqichlarini keltirib o'tgan. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va o'zgarishlarini bayon etgan [6].

Yuqorida keltirilgan fikrlarda inklyuziv moliyaga umumiy tushuncha sifatida yondashilib, asosiy e'tiborni uning o'ziga xos xususiyatlariga qaratish lozim edi. Fikrimizcha, inklyuziv moliya tizimi iqtisodiy va noiqtisodiy to'siqlarsiz moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunday inklyuziv moliyaviy xizmatlar



aholining kambag'al va kam ta'minlangan qatlami uchun samarali bo'lib, inklyuziv moliyasiz bu qatlam ta'lim olish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish uchun o'zining cheklangan shaxsiy jamg'armasi hamda daromadlariga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy tizim inklyuziv bo'lmagan taqdirda, kam ta'minlangan aholi qatlami o'zlarining cheklangan daromadlariga tayanishga majbur bo'lishlari tengsizlikning yanada kuchayishiga va iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda inklyuziv moliyani rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega va ushbu masala xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yilning sentyabr oyida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) O'zbekiston Hukumatining bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan yoki yetarli darajada qamrab olinmagan mikrokorxonalarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha choralarini qo'llab-quvvatlash uchun 300 million AQSH dollari miqdorida sektorni rivojlantirish dasturini ma'qullaganligi alohida e'tiborga loyiq. Buning natijasida mamlakatda barqaror va inklyuziv o'sishga imkoniyat yaratilishi ko'zda tutilgan. OTBning Markaziy va G'arbiy Osiyo bo'yicha Bosh direktorining fikricha, "Inklyuziv va barqaror mikromoliyalash sektori O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratilishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanmish mikro va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. OTB ko'magida amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar O'zbekiston Hukumatining davlat banklarini tijoratlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, islohotlar mikromoliya tashkilotlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi va natijada ular fermerlar, mikro-va kichik korxonalar yaxshiroq xizmat ko'rsatishi va moliyaviy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin" [7].


Garchi global bank tizimi barqaror xususiyatga ega bo'lsa-da, hanuzgacha ayrim muammolarga duch kelinayotganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, inklyuziv moliyaning pastligi oqibatida har yili milliardlab odamlar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda kuzatilmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining bank hisob raqamlaridan juda kam foydalanishi, bo'sh pul mablag'larini omonatga qo'yish yoki kredit olish imkoniyatiga ega emasligi moliyaviy muammo sifatida iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda.

Dunyodagi ko'plab banklar o'rtasidagi raqobat zaif va talab darajasida emas. Aksariyat moliya tuzilmalari innovatsiyalarni joriy qilishda sustkashlikka yo'l qo'yishi samaradorlikka ta'sir ko'rsatmoqda. Binobarin, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda fintex-kompaniyalari an'anaviy tizimga muqobil, ya'ni raqobatchi sifatida maydonga chiqmoqda.

Moliya tizimda xavfsizlikka oid muammolar ham mavjudki, kiber xuruj va axborot xavfsizligi bilan bog'liq ushbu holatlar banklar uchun jiddiy muammoga aylanib boryapti. Moliyaviy xizmat raqamlashuvi tufayli xavfsizlikka nisbatan talabning ortishi banklar zimmasiga moliyaviy amaliyot xavfsizligini ta'minlash, maxfiylikni saqlash borasida ulkan mas'uliyatni yuklamoqda. Ayrim banklarning katta miqdorda harajatlarni amalga oshirishi xizmatlar narxini oshirmoqda. Tranzaksiya harajati va komissiya miqdorining yuqoriligi ko'p hollarda iqtisodiy rivojlanishni cheklamoqda. Bu esa bank xizmatidan foydalanish narxi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday davlatlarda bank tizimi ikki asosiy vazifani bajarishini alohida qayd etish lozim, ya'ni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inklyuziv moliyani rag'batlantirish. Bu jarayonda banklar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va aholini moliyaviy xizmatlarga jalb etishni ta'minlash uchun muhim mexanizmga aylanadi. Banklar orqali inklyuziv moliya ko'lamining kengayishi esa insonlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz moliya sektorida davlat tijorat banklari ustunlik qiladi, inklyuziv moliyani taqdim etuvchi mikromoliya tashkilotlari esa bank tizimining atigi 0,5 foizini tashkil qiladi. "Global Findex"ning 2021 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, voyaga yetgan O'zbekistonliklarning faqat 44 foizi rasmiy moliya institutlarida hisob raqamlariga ega, bu esa Markaziy Osiyodagi o'rtacha 58 foizni tashkil etuvchi mintaqaviy qo'rsatkichdan ancha pastdir [7]. Moliya tizimida mikromoliyalashtirish bo'yicha yuzaga kelgan vaziyat kichik va o'rta biznes vakillari uchun inklyuziv moliyalashtirish bozorida sezilarli kredit bo'shlig'ini yaratdi. OTB ko'magida esa hukumatga aynan ana shu kredit bo'shlig'ini bartaraf etish, inklyuziv moliya tizimini kengaytirish va mamlakatning taraqqiyot rejasi bo'lgan "O'zbekiston 2030" strategiyasiga muvofiq barqaror va inklyuziv o'sishni rag'batlantirishga yordam berishi maqsad qilib olingan.

Xalqaro amaliyotga e'tibor beradigan bo'lsak, USAID tadqiqotlarida inklyuziv moliyaga moliyaviy xizmatlarning kirib borish darajasi, ya'ni ulardan foydalanish chastotasi sifatida yondashilgan. Jahon banki tomonidan inklyuziv moliyaning 4 ta asosiy turini ikkita yirik guruh: ixtiyoriy va majburiy inklyuziyaga ajratgan holda shakllangan (1-chizma).



1-chizma. Rasmiy moliya tizimidan tashqarida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar

Inklyuziv moliya strategik maqsadlardan biri bo'lib, u iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda naqd pulsiz iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun quyidagi uch manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi:

Davlat va reguliyatorlar o'rtasida;

Moliyaviy xizmatlarni taqdim etuvchilar;

Iste'molchilar (moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish, daromadlarni oshirish va barqarorlashtirish, aktivlarni boshqarish va b.).

Biroq, inklyuziv moliyani kengaytirish bir qator risk va muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday risklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) banklardagi skoring modellari yetarlicha samarali emasligi va shunga mos ravishda banklar o'rtasida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda aholining to'lovga layoqatsiz qatlamlariga ko'p miqdorda kredit ajratish riski. Bunda qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga yetarlicha e'tibor bermaslik va banklar o'rtasidagi raqobat tufayli kreditlash standartlarini pasaytirish, ayniqsa inqiroz sharoitida portfel sifatining sezilarli darajada yomonlashishi riskini yuzaga keltiradi;

2) moliya bozori aktivlarida nobank moliya institutlari ulushining pastligi va shunga mos ravishda bank tizimidagi muhim tizimli risklar;

3) moliya tizimiga jalb etilishi mumkin bo'lgan uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining muhim zaxiralarining mavjudligi.

Quyidagi muammolar natijasida inklyuziv moliya ommalashuvining murakkablashishini alohida qayd etib o'tish lozim:

banklar va moliyaviy reguliyatorlarga bo'lgan ishonchning pastligi (banklardan tashqarida yuqori darajada naqd pul va valyutaning bo'lishi bilan kuzatilgan);

kompaniya va banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlardan (ularning mohiyatini tushunmasdan) hissiyotlar asosida foydalanish (xususiylashtirish jarayonida kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini olgan "uyqudagi investorlar", ish beruvchining tashabbusi bilan MPF bilan pensiya shartnomalarini tuzgan "bilvosita investorlar", majburiy sug'urta turlaridan foydalanuvchilar);

daromadning katta qismini jamg'armaga emas, balki iste'molga sarflanishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda zamonaviy moliyaviy xizmatlar bozori mijozlar ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Bu esa inklyuziv moliya orqali iqtisodiyotga sarmoya jalb etish va moliyaviy tizimni diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Osiy taraqqiyot banki tomonidan ilgari surilgan dasturida [7] inklyuziv moliyani rivojlantirish uchun siyosiy muhitni yaxshilash, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning institutsional salohiyatini oshirish va mikromoliya bozori o'sishini ta'minlash uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha tarkibiy islohotlarni amalga oshirish lozimligi taklif sifatida keltirib o'tilgan.

Shunday ekan, mamlakatimizda inklyuziv moliyani rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

Milliy AKT, elektron xizmatlar va dasturiy ta'minotni rivojlantirish;

Moliya bozorini raqamlashtirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash;



Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiyalash va xizmatlar sifatini oshirish;
Moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarning mavjudligini va arzon narxda bo'lishini ta'minlash;
Aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshirish;
Nogironligi bor va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun masofaviy xizmat kanallarini muvofiqlashtirish va b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Курилова А. А. Финансовая инклюзивность: понятие и измерение // Наука, общество, образование в современных условиях: монография. Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2022. С. 29-38.
2. First Annual GPFI Conference and Technical Meeting on Standard-Setting Bodies and Financial Inclusion. – URL: <http://www.gpfi.org/featured/first-annual-gpfi-conference-and-technical-meeting-standard-setting-bodies-and-financial-inclusion>.
3. OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy Competencies. OECD. Paris. 2016. – 100 p. URL: www.oecd.org/finance/OECD-INFE-International-Survey-of-Adult-Financial-Literacy-Competencies.pdf
4. Global Financial Development Report 2014. Financial Inclusion. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. https://www.fi-compass.eu/sites/default/files/publications/GFDR-2014_Complete_Report.pdf
5. Элмуродов Ш. Яширин иқтисодий камайтиришда молиявий механизмларнинг иқтисодий аҳамияти ва ўрни // Moliya va Bank ishi Jurnal 3 (2022), 160-165.
6. Икромов К.Т. Молиявий инклюзиянинг назарий асослари ва ривожланиш тенденциялари // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №1(21) 2025. 118-127 б.
7. <https://www.adb.org/uz/news/adb-program-boost-financial-development-and-inclusion-uzbekistan>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
